


O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ma'ruzalari



"O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ma'ruzalari" ilmiy jurnalining muassisi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi hisoblanadi. Jurnal 1944 yildan nashr etilgan (ISSN 2181-5372).

"O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ma'ruzalari" jurnali O'zbekiston olimlarining matematika, texnika fanlari (mexanika, energetika, AKT texnologiyalari, seysmologiya va boshqa muammolar), tabiatshunoslik (fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, zoologiya, genetika, geologiya, geografiya, ekologiya va boshqalar) sohasidagi ilmiy statyalarini nashr etadi.

Nashr tili. O'zbek, rus, ingliz

Jurnalning maqsadi va vazifalari. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining ilmiy xodimlari, mutaxassislari, magistrleri va doktorantlarining keng doirasini matematika, texnika fanlari, tabiatshunoslik sohasidagi so'nggi ishlanmalar, yutuqlar va yangiliklar haqida ma'lumot bilan tanishtirish.

Ixtisoslashuv. Jurnalda O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolari (akademiklari) tomonidan taqdim etilgan original ilmiy maqolalar chop etiladi.

Tarqatish shartlari - jurnal faqat obuna orqali tarqatiladi.

Moliyalashtirish manbalari - budjetdan tashqari mablag'lar va respublikadagi obuna hisobiga.

TARKIBI

O'zbekiston Respublikasi FA ma'ruzalari jurnali tahririyat hay'ati

Bosh muharrir - akad. O'zbekiston Respublikasi FA B.S. Yuldashev

Bosh muharrir o'rinbosari - doktor. fis.- mat. fanlari S.Z. Mirzayev

Mas'ul kotib - doktor. fis.- mat. fanlari M.V. Kremkov

Tahririyat a'zolari

O'zR FA akad. K.R. Allayev, O'zR FA akad. T.F. Aripov,
O'zR FA akad. T.U. Aripova, O'zR FA akad. Sh.A. Ayupov,
texnik fanlari doktori G.A. Bahadirov, O'zR FA akad. S.A. Bahramov,
O'zR FA akad. B.M. Beglov, O'zR FA akad. B.T. Ibragimov,
O'zR FA akad. R.A. Muminov, O'zR FA akad. S.Sh. Rashidova,
O'zR FA akad. K.Sh. Tojibayev, O'zR FA akad. Sh.A. Egamberdiyev

Bosh muharrir



Yuldashev Bexzod Sodiqovich

Fanlar akademiyasi prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti (2017-yil 10-yanvardan - hozirgi vaqtga qadar) Fizika sohasi olimi, fan tashkilotchisi va jamoat arbobi. O'zSSR Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati (1983 y.) Amerika fiziklari jamiyati a'zosi, Indiana universiteti, Vashington universiteti (AQSh) va Kembrij universitetlari (Buyuk Britaniya) faxriy professori (fellow), Islom dunyosi akademiyasi (IAS) akademigi, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (BYTI, Dubna shahri, Rossiya) faxriy doktori. Xalqaro ESO mukofoti laureati (2004 y.)

1945-yil 9-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1968-yilda Toshkent Davlat univesiteti va Moskva Davlat univesitetini yadro fizikasi mutaxassisligi bo'yicha a'lo baholar bilan tamomlagan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi haqiqiy a'zosi - akademik (2000 y.), fizika-matematika fanlari doktori (1981 y.), professor (1987 y.), fizika-matematika fanlari nomzodi (1971 y.). 1990-2006 - yillarda va 2017-yildan bugunga qadar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi Yadro fizikasi instituti direktori. Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida katta ilmiy xodim, Fizika-texnika institutida laboratoriya mudiri, Yadro fizikasi instituti direktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi prezidenti (2000-2005 yy.), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatori, Xalqaro atom energiyasi agentligida (Vena sh., Avstriya) fan bo'yicha maslahatchi, Vashington universiteti, Stenford universiteti (AQSh) va Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida taklif etilgan professor lavozimlarida ishlagan. Milliy tezlatgichlar laboratoriyasi Fermilab (AQSh) va Triumf (Vankuver, Kanada) laboratoriyalari tezlatgichlarida xalqaro tadqiqotchilar guruhi tomonidan bajarilgan ikkita eksperimentlarga ilmiy rahbarlik qilgan. Yevropa yadro tadqiqotlari markazining (CERN, Jeneva, Shveysariya) Katta adron kollayderida (Large Hadron Collider) o'tkaziladigan eksperimentlarda ishtirok etadi. Yadroviy xavfsizlikni mustahkamlash va yadro qurollarini tarqatmaslik bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish yuzasidan yirik loyihalarga rahbarlik qilgan. Asosiy ilmiy-tashkiliy faoliyati elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, sanoat, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohalarida yadro texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalarni qamrab oladi. 300 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta monografiya va 20 ta ixtiro muallifi.

Ilmiy rahbarligida 8 fan doktori va 30 ga yaqin fan nomzodlari tayyorlangan. «Mehnat shuhrati» Ordeni bilan mukofotlangan (2003 y.)

Manzil: O'zbekiston, 100047, Toshkent shahar, Yahyo G'ulomov, 70 O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Telefon: (+99871) 233-46-24

Faks: (+99871) 233-74-82

E-mail: fund@academy.uz

Sayt: www.academy.uz

Arxiv

[FAM 2020 yil 1 - son](#)

[FAM 2020 yil 2 - son](#)

[FAM 2020 yil 3 - son](#)

[FAM 2020 yil 4 - son](#)

[FAM 2020 yil 5 - son](#)

[FAM 2020 yil 6 - son](#)

[FAM 2021 yil 1 - son](#)

[FAM 2021 yil 2 - son](#)

[FAM 2021 yil 3 - son](#)

[FAM 2021 yil 4 - son](#)

[FAM 2021 yil 5 - son](#)

[FAM 2021 yil 6 - son](#)

[FAM 2022 yil 1 - son](#)

[FAM 2022 yil 2 - son](#)

[FAM 2022 yil 3 - son](#)

[FAM 2022 yil 4 - son](#)

[FAM 2022 yil 5 - son](#)

[FAM 2022 yil 6 - son](#)

[FAM 2023 yil 1 - son](#)

[FAM 2023 yil 2 - son](#)

[FAM 2023 yil 3 - son](#)

[FAM 2023 yil 4 - son](#)

[FAM 2023 yil 5 - son](#)

[FAM 2023 yil 6 - son](#)

[FAM 2024 yil 1 - son](#)

FAM 2024 yil 2 - son

FAM 2024 yil 3 - son

Maqolalarni qabul qilish qoidalari